

"YULDUZLI TUNLAR" ROMANIDAGI BOBURNING SABR-U MATONATI

Kazakova Ruxshona Tohir qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti (ingliz tili) fakulteti

2-bosqich 2318-guruh talabasi

ruxshonatohirovna@gmail.com

+998930433406

Annotatsiya: Bu dunyoda inson hayotidanda qiziqroq narsa bo'lmasa kerak degan gap bejiz emas, albatta. Har bir buyuk ijodkor ham shubhasiz bir insonning hayot yo'li haqida asar yozadi, shuning uchun ham uning asarida insonni o'ziga jalb eta oladigan xususiyatlar bo'ladi. Pirimkul Qodirov ham "Yulduzli tunlar" romanini yozish davomida o'sha barcha xususiyatlarni umumlashtirib yozadi. Ushbu maqola Ana shu romandagi Zahiriddin Muhammad Boburning hayotidagi voqealar, podshoh sifatida muammolarning yechimini adolat bilan hal eta olganligi hamda uning hayolini band etgan, yurak-yuragidan xohlagan ijod bilan shug'ullanish orzusi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: uslub, badiiy bo'yoqdorlik, adolat, orzular, hiyonatkorlik, ijod, yangi sarhadlar.

BABUR'S PATIENCE AND PERSEVERANCE IN THE NOVEL "YULDUZLI TUNLAR".

Annotation: It is not without reason that there is nothing more interesting in this world than human life. Every great artist undoubtedly writes a work about a person's life path, so his work will have features that can attract a person to him. Pirmkul Kadirov also summarizes all those features while writing the novel "Starry Nights". This article is written about the events in the life of Zahiriddin Muhammad Babur in this novel, how he was able to solve problems with justice as a king, and his dream of doing what he wanted from his heart.

Keywords: style, artistic painting, justice, dreams, betrayal, creativity, new frontiers.

Bu asarni o'qimagan va bilmagan insonning o'zi bo'lmasa kerak. Chunki uni Pirimkul Qodirov shunday mahorat bilan yozganki, undagi mazmun, ma'no bir-biri bilan uyg'unlashib, butun bir mashxur romanni yaratgan. Ijodkor uning badiiy uslublaridan tashqari voqealar rivojini ham ustalik bilan jonlantirgan. Romanni o'qiganda insonning ko'z o'ngida butun boshli bir kino jonlanayotgandek bo'ladi. Inson hayoti qiziq deyilganidek bu asarda shoh va shoir Boburning hayoti tasvirlangan. U anchadan-ancha qiyinchiliklarni boshidan kechirib, oxiri yorug' kunlarga yetishadi, ammo o'sha kunlarga yetishganda u boshqa mamlakatda bo'ladi, uning armoni ham shu edi. Shuningdek, uning birdan bir orzusi

esa jang-u jadallardan uzoqda ijod bilan shug'ullanish edi, chunki u bolaligidan boshlab Navoiyning ijodiga xavas qilardi. U Navoiy kabi buyuk ijodkor bo'lishni orzu qilardi va qanchadan-qancha ruboiylar yozadi. Neki bo'lganda ham taslim bo'lishni istamasdi. Bu haqiqiy hayot voqealari haqiqatdan ham juda ustalik bilan yozilgandir.

Asar voqealari o'n ikki yoshli Boburning hali ot choptirib, Alisher Navoiy ijodiga oshiq bo'lib yurgan paytlardan boshlanadi. U hatto Navoiyning Behzod chizgan suratini doimo o'zi bilan olib yuradi va bir kun Navoiy bilan uchrashish umidi bir lahza ham uni tark etmaydi. Bu masalada esa uni buvisi Esondavlatbegim qo'llab-quvvatlaydi. Lekin shum taqdir o'sha paytlarda uning boshiga qiyin kunlarni soladi. Otasi Umarshayx mirzo vafot etadi va davlat ishlari Boburning zimmasiga yuklanadi. Albatta, uni qo'llab-quvvatlaydigan onasi Qutlug' Nigor xonim va opasi Xonzoda begim uni har doim yonida bo'lib madad berib turishadi. Amma hammasi endi boshlangan edi. U davlat ishlarini boshlagan paytlarda unga qarshi beklar-u mulozimlar yuq emas edi, albatta. Ularning maqsadi esa Boburning ukasi Jahongir mirzoni taxtga chiqarib, hokimiyatni qo'lga olish. Ular bu maqsadiga yetishadi ham, bu paytda esa Bobur uchun davlatning barcha darvozalari yopiladi, keyin esa Bobur bir necha yillar davomida sarson-u sargardonlikda yashashga majbur bo'ladi. Yomon mulozimlar bo'lgani kabi yaxshilari ham yuq emas, albatta. Ular Boburni yoshligidan boshlab yonida bo'lgan, ba'zan ustozlik ham qilgan Qosimbek qovchin va Nuyon Ko'kaldosh edi. Qosimbek har qanday vaziyatda ham Bobur bilan bo'ladi, unga sadoqat bilan hizmat qiladi. Bu qiyin kunlarda Bobur ancha siqilib, tushkunlikka tushib yuradi, bu vaqtda esa opasi Xonzoda begim unga ruhan madad beradi. Bu o'tayotgan kunlarini buyuk bobosi Amir Temur mashaqqat bilan bosib o'tgan kunlarga o'xshatadi. Keyin esa onasi unga Amir Temurdan qolgan qilich va xotira daftarini sovg'a qiladi va bobur bu daftardan ancha nasihatlar oladi, undagi Amir Temurning davlatni boshqarish usulidan ancha o'rnak olib o'z ishlarini ham Amir Temurniki kabi amalga oshiradi. Shunigdek badiiy ijodni ham to'xtatib quymaydi, ba'zan go'zal misralar va ruboiylar yozib turadi.

Navoiy bilan bir kun ko'rishish orzusidan aslo kechmaydi. Keyinchalik u uchun yana bir dushman Shayboniyxon keladi, u o'sha kunlarda ko'plab viloyatlarga hujum uyushtirib bosib olayotgan paytda edi. Bobur unga qarshi bor kuchi bilan kurashadi, ammo shu paytda uning qo'shinida bo'lgan bir qancha jangchilar Shayboniyxon tomonga utib, unga hiyonat qilishadi. Bu Boburning hayotida yana bir zarba bo'ladi va shu paytda yana opasi va onasi unga ko'mak bo'lib, uni urushlardan uzoqlashtirishni xohlaydi. Hatto opasi bobur uchun hamma narsadan kechadi. Yana Bobur hayotida o'tgan sargardonlikdagi kabi kunlar boshlanadi, lekin bu safar uning ijod bilan shug'ullanishi uchun biroz bo'lsa ham imkoniyat yaratilgandi, chunki u rostdan ham davlat ishi va urushlardan yiroqda edi. U bu safar Qutlug' Nigor xonimning akasi Toshkent xoni Mahmudxondan yordam so'rab ko'radi, lekin Boburning yengilganini bilgan, unga kuchsiz bir inson kabi qarayotgan edi. Shuning uchun yordam bermaydi. Shunday kunlar keladiki, Boburga hiyonat qilgan beklar-u mulozimlar, Shayboniyxon va hatto Mahmudxon ham qilmishlariga yarasha jazosini oladilar. Bu safar saltanat hech qanday urushsiz o'z egasining qo'lga utadi. Shuni aytish joizki, Bobur ijod bilan shug'ullanib yurgan paytlarda uning she'ri misralari va ruboiylari el- xalq orasida va

chekka hududlarda ham juda mashxur bo'lib ketgan edi. Ularni insonlar qo'shiq ham qilib kuylashardi. Ular shunday mashxur bo'ladiki, Hirotga ham yetib boradi. Alisher Navoiy ham ulardan bahramand bo'ladi va Boburning misralarini baholagan kabi unga xat yuboradi. Bobur kutgan kunlar keldi, u Navoiydan xat oldimi demak uning o'zini ham ko'ra oladi. Bobur ham uning xatiga javoban misralaridan parcha va o'zining dilidagi so'zlarni yuboradi. Ammo u yuborgan chopar Hirotga qadar yetib borguncha Navoiy vafot etgan edi. Endi hammasi sarob, Boburning ko'zlariga go'yoki hayot qorong'u bo'lib ketgandek edi, buning ustiga xalq orasida ig'vogarlar yana unga qarshi gap tarqatishadi. Endi tamom. U boshqa bu narsalarga bardosh bera olmaydigan darajaga yetadi va endi yangi sarhadlar sari yo'l oladi. U Kobul, Agra va yana boshqa sarhadlarni egallab bitta davlatga birlashtiradi. Uning yana davlatiga qaytib uni qayta egallashga kuchi yetar edi, ammo u hayotdagi urushlar, jang-u jadallardan qattiq charchagan edi. Uning hayotida endi uni doim qo'llab-quvvatlaydigan, madad berib turadigan onasi ham yuq edi. Shunday bo'lsada, uning qalbidan vatan sog'inchi, ona yurtiga bo'lgan sevgisi hech ham tark etmagan edi. Shuningdek, u hayotida o'tgan voqea-hodisalarni qog'ozga tushirib Vaqoye' (Boburnoma)ni yozib borardi. Bir kuni uning o'g'li Humoyun kitobni o'qimagan ekanligini aytganida, Bobur qachonki mening umrim tugasa bu kitob ham yakunlanadi degandi. O'sha kitobni beradigan kun ham keldi, o'sha kitobni chiroyli muqovalangan holda o'g'liga topshirdi va so'nggi kunida uning hayolidan o'tgan bolaligi, Navoiy ijodiga oshiq davrlari, onasi va opasining mehri- hammasi uning ko'z o'ngida birma-bir jonlana boshladi va opasidan, o'glidan va ayoli Mohim begimdan uni podshoh sifatida Hazrati oliylari deb emas, oddiy bir inson sifatida Boburjon, ota, begim deb chaqirishlarini xohladi.

Bu asar nafaqat mashhur, balki uning o'qigan inson u kabi asar yozishni orzu qiladi. Zahiriddin Muhammad Boburning she'rlari esa avlodlar qalbida hamisha saqlanib qoladi. Uning orzusi ham shu edi, u o'zini faqatgina shoh sifatida emas, Navoiy kabi shoir sifatida eslashlarini xohlardi. Shunday boldi ham.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1)Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romani. "Sharq" nashriyoti 2010-yil 146-149-betlar
- 2) Zahiriddin Muhammad Boburning " Boburnoma" asari "O'zbekiston fanlar akademiyasi" nashriyoti 1969-yil 136-150-betlar
- 3) <https://cyberleninka.ru>. Sultanova Ugilshod Saitmuratovna Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridagi qahramonlar obrazlar tavsifi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Journal.
- 4) <https://iht.uz> "Yulduzli tunlar" romani haqida. Abdukadirova Mo'qaddam.
- 5) <https://conferencea.org> Isoqulova Aziza Rustamovna. (2022). PRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ROMANIDA "BOBURNING DAVLAT TARIXIDA TUTGAN O'RNI VA OBRAZLAR" TAVSIFI. Conferencea, 93–96.
- 6) Kenjaev, S. (2017). Innovation Offshoring Performance/submitted by Sherzod Kenjaev (Doctoral dissertation, Universität Linz).